

YOSHLARNI HARBIY – VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHNING O‘ZIGA XOS HUSUSIYATLARI

Osiyo Xalqaro Universiteti magistri
Meliyev Ma‘ruf Qiyomjonovich

Annotatsiya: O‘quv muassasalarda vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, yoshlarda Vatanga muhabbat va sadoqatni shakllantirish, Vatan an’analarini tarixini o‘z xalqini hurmat qilishga katta e’tibor berish va yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga harakat etmoq lozimligi haqida.

Kalit so‘zlar: Vatanparvarlik, xalq, armiya, ma’naviy – ahloqiy qadriyatlar, g‘ururni yuksaltirmoq, davlat siyosati, rivojlantirish, faollik ko‘rsatish,

Bugungi globallashuv va keskin raqobat davrida, dunyoning turli burchaklarida, jumladan, mintaqamizda, yuz berayotgan qurolli mojarolar va qarama-qarshiliklar, yangi tahdid va xatarlar oldimizga kechiktirib bo‘lmaydigan dolzarb vazifalarni qo‘ymoqda.

Aynan shunday sharoitda mamlakatimiz yoshlarini vatanparvarlik, shu jumladan, harbiy-vatanparvarlik, yuksak ma’naviy -ahloqiy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, ularning ongiga tinchlik va totuvlikni ko‘z qorachig‘idek asrab-avaylash zarurligini chuqur singdirish, “ Xalq va armiya – bir tan-u bir jondir” degan ezgu g‘oya asosida yoshlar tarbiyasiga mas’ul vazirlik va idoralarning kuch va imkoniyatlarini bir g‘oya, bir maqsad asosida birlashtirish talab etilmoqda.

“ Yosh avlodimizda qat’iy hayotiy pozitsiya va Vatanimiz taqdiri uchun uchun yuksak mas’uliyat tuyg‘usini shakllantirish alohida muhim ahamiyatga ega. Shuni hisobga olib, mamlakatimizda o‘rta maktabdan boshlab oliy o‘quv yurtlarigacha qamrab oladigan uzluksiz harbiy ta‘lim va vatanparvarlik tarbiyasi bo‘yicha o‘ziga xos noyob va yaxlit tizim yaratilmoqda ” deb aytgan edilar muhtaram yurtboshimiz Sh.M.Mirziyoev.

Harbiy xizmatga tayyorlash va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash yoshlarni O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari safida xizmat qilishga tayyorlash tizimining asosiy qismi hisoblanadi. Harbiy xizmatga tayyorlash jarayonida yoshlar O‘zbekiston Respublikasi “ Mudofaa haqida” gi qonuni, Konstitutsiyasini o‘rganadi. Yosh harbiyni tayyorlash hajmi bo‘yicha kerakli harbiy bilim va amaliy ko‘nikmalarni egallaydilar va jismoniy tarbiya bilan muntazam shug‘ullanadilar va psixolgik barqarorligi tarbiyaladi. O‘quv yurtida harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning ko‘pgina shakl va uslublardan keng foydalaniladi.

Vatanparvarlik bu- O‘zbekistonda hukm surayotgan tinchlik va osoyishtalikni, jamiyatimizdagи bunyodkorlik muhitini, biz barpo etayotgan farovon va tinch va osuda

hayotni tuzishda eng mustahkam yunalishimizdir. Yurtimizda mavjud bo‘lgan salohiyat va boylikni ishga solish, ulardan oqilona foydalanish, o‘z ko‘ch va imkoniyatmizga, ota-onalarimizdan qolgan beba ho meros, milliy urf-odat va an’analari ga suyanish, qadriyatlarni tiklash, bir-birimizga yelkadosh bo‘lish ehtiyojini har tomonlama tushunib yetish demakdir.

O‘quv muassasalarda vatanparlik ruhida tarbiyalash, yoshlarda Vatanga muhabbat va sadoqatni shakllantirish, Vatan an’analari ni tarixini o‘z xalqini hurmat qilishga katta e’tibor berish va yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga harakat etmoq lozimligi haqida. Harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlarini prinsipial jihatdan yangicha yondashuv asosida yo‘lga qo‘yish va tizimga solishga hayotiy muhim ehtiyoj sezilayotganligiga guvoh bo‘lamiz.

2023 – 2027-yillarda yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash konsepsiysi (keyingi o‘rinlarda – Konsepsiya) O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, O‘zbekiston Respublikasining “ Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Hukumati qarorlari asosida ishlab chiqilgan hamda sohaga oid dasturlar va kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish uchun asos bo‘ladi.

Xulosa qiladigan bo‘lsak, har qanday og‘ir va murakkab vaziyatda Vatanimizni ko‘z qorachig‘idek asrash, uning shuhratini dunyoga tannum etish bilan bog‘liq eng muhim tushunchalarni, hayotiy va professional ko‘nikmalarni ilm-ma’rifat, shuningdek, milliy qadriyatlarni asosisa yoshlarning qalbi va ongiga ilk bolalik davridan boshlab singdirib borish orqali vatanparvar, sadoqatli hamda shijoatli yoshlarni kamol toptirish Konsepsiyasining asosiy mohiyatini tashkil etadi.

Yoshlarning harbiy-vatanparvarlik tuyg‘ulari, ma’naviy sifatlari va intellektual salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan tarbiyaning yagona tizimini yaratishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 8-maydagi 272-sonli qarori.
- 2.2023-2027- yillardagi “ Qonunlar”
3. “ Mudofaa haqida”gi qonuni.